



## MOLIYAVIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA PENSIYA VA HAYOT SUG'URTASINING AHAMIYATI

Mirzamahmudova Madina Odiljon qizi

O'zbekiston Milliy universiteti PhD, dotsent v.v.b.

[mirzamahmudovamadina@gmail.com](mailto:mirzamahmudovamadina@gmail.com)

DOI: [https://doi.org/10.55439/INS/vol2\\_iss2/262](https://doi.org/10.55439/INS/vol2_iss2/262)

**Annotatsiya:** Maqolada sug'urta xizmatlarini rivojlantirishning ahamiyati asoslab berilgan. Shuningdek pensiya tizimi va hayot sug'urtasining ahamiyati, vazifalari, asosiy ko'rsatkichlari tahlil etilgan. Respublikadagi pensiya tizimi va hayot sug'urtasining moliyaviy xavfsizlikni ta'minlashdagi birgalikdagi ahamiyati bo'yicha xulosalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** sug'urta bozori, pensiya tizimi, pensionerlar, o'rtacha oylik pensiya, yoshga doir pensiya, hayot sug'urtasi, sug'urta mukofoti, sug'urta to'lovi, sug'urta majburiyati, majburiy sug'urta, ixtiyoriy sug'urta.

**Abstract:** The article substantiates the importance of developing insurance services. The significance, tasks, and key indicators of the pension system and life insurance are also analyzed. Conclusions are given about the combined importance of the pension system and life insurance in the republic to ensure financial security.

**Keywords:** insurance market, pension system, pensioners, average monthly pension, age pension, life insurance, insurance premium, insurance payment, insurance obligation, compulsory insurance, voluntary insurance.

**Абстрактный:** В статье обосновывается важность развития страховых услуг. Также проанализировано значение, задачи, основные показатели пенсионной системы и страхования жизни. Даны выводы о совместном значении пенсионной системы и страхования жизни в республике для обеспечения финансовой безопасности.

**Ключевые слова:** страховой рынок, пенсионная система, пенсионеры, среднемесячная пенсия, возрастная пенсия, страхование жизни, страховая премия, страховая выплата, страховое обязательство, обязательное страхование, добровольное страхование.

### Kirish (Введение/ Introduction)

Sug'urta bozorini rivojlantirishning ahamiyati juda katta bo'lib, u mamlakat iqtisodiy barqarorligi va aholining moliyaviy xavfsizligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Xususan, O'zbekistonda ham ushbu bozorni rivojlantirish, mamlakatda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda, investitsiyalarni rag'batlantirishda, aholini ijtimoiy himoya qilishda muhim ahamiyatga ega. 2019-yil 10-iyul kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan sug'urta xizmatlarini kengaytish masalalariga bag'ishlangan yig'ilish bo'lib o'tdi. Unda "sug'urta xizmatlari iqtisodiyotni turli xil moliyaviy xatarlardan himoya qiluvchi vositalardan biridir. Biroq mamlakatimiz moliya bozorida bu xizmatlarning o'mi hozircha katta emas. Joriy yilning olti oyida sug'urta tashkilotlari tomonidan yig'ilgan sug'urta mukofoti o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,5 barobar oshgan bo'lsa-da, sug'urta tushumi aholi jon boshiga 50 ming so'mdan to'g'ri kelgan. Ushbu sohaning mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotidagi ulushi atigi 0,4 foizni tashkil etmoqda. Qiyos uchun, bu ko'rsatkich Janubiy Koreyada 11 foiz, Germaniyada 6 foiz, Rossiyada 1,5 foizni tashkil etadi. Buning asosiy sabablaridan biri - sug'urta xizmatlari yetarli darajada jozibador emasligidir"[1] -deb ta'kidlab o'tildi.

Mamlakatimizda sug'urta xizmatlari, jumladan, hayot sug'urtasi va pensiya sug'urtalarining rivojlanmasligining asosiy muammolari sug'urta madaniyatining pastligi, raqobat va mahsulotlarning cheklanganligi, moliyaviy savodxonlikning pastligi, davlat pensiya tizimining moliyaviy bosimi, xususiylar pensiya jamg'armalarning rivojlanmaganligi va boshqalarni aytish mumkin. Tadqiqot ishida ushbu jihatlariga to'xtalib, sug'urtaning ushbu ikki turi afzalliklarini, aholining keksalik vaqtida moliyaviy xavflardan himoya qilishini ko'rsatib berishdan iborat.

### Adabiyotlar tahlili (Обзор литературы/Literature review).

Hayot sug'urtasi va pensiya tizimi sohasini rivojlantirish yo'nalishlari qator xorijlik iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarida tadqiq qilingan,

jumladan, uzoq xorij olimlaridan: Vis Villiam, Rajesh Kumar, Dileep Kumar Sinh, Tafadzvanashe Zinyoro, Meshach Jessi Aziakpono, Linda Serra Jagedorn, Lusi Rey-Ares, Darian Lov WNg Svii, Robert Jeyakumar Nathan, Eva Jorgeniya-Heyik, Stefania Basiglio, Noemi Oggero, Mr. Benedict J. Clements, Alexander Nepp, Viola Larionova, Ostap Okhrin; yaqin xorij olimlaridan: A.E.Yun, N.V.Kuznetsov, O.N.Suslyakova, Y.E.Kovbasyuk, A.E.Zaborovskaya, M.A.Trifonova, S.V.Aksyutina, S.L.Borovaya, A.V.Vasilchikova, A.Vavulina, R.Aleksey, A.Shalimova, I.Pitalev.

Hayot sug'urtasi va pensiya tizimi faoliyati, uning joriy etish metodologiyasi, afzalliklari va rivojlantirish yo'nalishlari mamlakatimiz olimlari: Sh.S.Nasretdinova, G.Abduljalilova, A.Kadirov, Z.N.Shoraximova, D.I.Zokirova, U.R.Ismatov, D.Y.Hamroyeva, Sh.Davronov, J.Tursunov, A.V.Vaxabov, B.R.Shamsuddinov, M.O.Oxundedayeva, S.V.Nazarova, S.Y.Sharvarov, M.D.Ziyadullayev, Z.X.Srojiddinova, F.Z.Xoshimov va boshqalarning ilmiy ishlarida o'z aksini topgan.

### Tadqiqot usullari (Методы /Methods).

Maqolada tizimli tahlil va yondashuv, mantiqiy va tarkibiy tahlil qilish, guruhlash va umumlashtirish, statistik kuzatish, nisbiy miqdorlar tahlili, ekspert baholash, o'zaro va qiyosiy taqqoslash usullaridan foydalanilgan.

### Tahlil va natijalar muhokamasi (Анализ и результаты/ Analysis and results).

Inson kuchga to'lgan davrida bor iqtidori va mehnat layoqatini ishga solgan holda daromad olishga intiladi. Ammo mehnat qobiliyatini yo'qotishi va ishdan bo'shishi uning daromadining keskin pasayishiga sabab bo'ladi. Pensiya va hayot sug'urtasi har bir insonning moliyaviy xavfsizligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Pensiya lotincha “pension” soʻzidan olingan boʻlib, “toʻlov” degan maʼnoni anglatadi. Pensiya – qonun tomonidan kafolatlangan va fuqarolarning keksaligida, qisman yoki toʻliq mehnatga layoqatsizligida, boquvchisini yoʻqotganda hamda mehnat faoliyatining muayyan sohasida maʼlum ish stajiga erishgan vaqtda taʼminlashga qaratilgan pullik toʻlovlardir[2]. Demak, pensiya – bu pensiyadagi insonlarning asosiy moliyaviy taʼminoti boʻlib, ish faoliyati tugaganidan keyingi davrda daromad manbai hisoblanadi.

Pensiya taʼminoti tizimi oldida uchta muhim vazifalar turibdi[3]:

- fuqarolarni keksalik davrida kambagʻallikdan himoyalash;
- mehnat faoliyati tugashi bilan pensiyaga chiqish oldidan toʻlanadigan ish haqi miqdoriga mutanosib tarzda belgilangan muayyan miqdordagi kafolatlangan daromadni taʼminlash;
- bu daromadni kelajakda turmush darajasining pasayishidan himoyalash

Pensiya taʼminoti tizimi sugʻurta elementlari asosida shakllantiriladigan, aholining keksalik davrida farovon turmush kechirishida uning ehtiyojlarini qondirish va konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirish uchun yoʻnaltiriladigan pul mablagʻlari jamgʻarmasidan foydalanishga asoslanadi. Pensiya tizimiga xizmat qiluvchi pensiya jamgʻarmalari uchun daromad manbalarining aniq belgilanganligi, mablagʻlarning qatʼiy maqsadli ishlatilishi, mablagʻlarning shakllanishi va ishlatilish muddatlarining mos kelmasligi, mustaqil, byudjetdan tashqari moliya-kredit tashkiloti ekanligi hamda ijtimoiy sugʻurtaning muhim elementi ekanligi kabi xususiyatlar xosdir.

Pensiya miqdori, bir tomondan, jamiyatda eng kam daromadlarning himoyasini taʼminlash va ijtimoiy barqarorlikka erishish imkonini beradi. Ikkinchi tomondan, ijtimoiy adolatni taʼminlash imkonini beruvchi pensiyaga chiqish oldidagi ish haqi darajasi bilan bogʻliq.

Mamlakatda pensiya tizimining boʻlishining ahamiyati quyidagilarda namoyon boʻladi:

1. Moliyaviy xavfsizlik. Ishdan boʻshaganidan keyin daromad manbasidan mahrum boʻlmaslikni taʼminlaydi. Bu, ayniqsa, insonning sogʻliq bilan bogʻliq xarajatlar yoki kundalik ehtiyojlarni qondirishida muhim ahamiyatga egadir.


2. Hayot sifatini saqlash. Pensiya jamgʻarmalari orqali pensiyadagi insonlar oʻz odatiy hayot tarzini davom ettirishi mumkin.

3. Oilaga yuk boʻlmaslik. Pensiya moliyaviy mustaqillikni taʼminlab, pensiyadagi insonlarni farzandlariga yoki yaqinlariga qaram boʻlib qolishdan saqlaydi.

Mustaqillik yillarida Oʻzbekiston aholisi 21 mlndan 37,5 mlnga koʻpaydi va jahondagi eng koʻp aholiga ega boʻlgan mamlakatlarning birinchi 50 taliklar sirasiga kiradi. 2024-yilda mamlakat aholisining 50,3 foizi erkaklardan, 49,7 foiz qismi ayollardan tashkil topgan holda mehnat layoqatigacha yoshdagi aholi ulushi 29,6 foizni, mehnatga layoqatlar 57,4 foizni, mehnatga layoqatidan katta yoshdagilar ulushi esa 11,1 foizga teng boʻldi[4]. Mamlakatimizda oʻziga xos demografik vaziyat, aholi oʻrtacha umr koʻrish yoshining ortib borishi pensiya tizimini izchillik bilan takomillashtirishni, uning moliyaviy barqarorligini taʼminlashni taqozo etmoqda. Bunda pensiya jamgʻarmasi daromadlarini xarajatlarga nisbatan oshirish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Amaldagi qonunchilikka koʻra “Pensiya jamgʻarma mablagʻlari:


- fuqarolarga davlat pensiyalarining barcha turlari;
- 18 yoshgacha nogironligi boʻlgan bolaning ota-onalaridan biriga (vasiyga, homiyga) bir oyda qoʻshimcha dam olish kuni uchun toʻlovlar;
- qonun hujjatlariga muvofiq Jamgʻarma mablagʻlaridan moliyalashtiriladigan boshqa xarajatlar uchun sarflanadi;
- boshqa xarajatlar boʻyicha Jamgʻarma smetasi Jamgʻarmaning Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadi”[5].



1-rasm. 2017-2023 yillarda Pensiya va nafaqa oluvchi shaxslar soni, ming kishi[6]

2023-yil oxiriga Oʻzbekiston Respublikasida pensiya va nafaqa oluvchi shaxslar soni 4827,3 ming kishini tashkil etgan boʻlib, 2017- yilda bu koʻrsatkich 3488,9 ming kishini tashkil etgan. 2023- yil oxiriga nisbatan oʻsish koʻrsatkichi 38,3 foizni tashki etdi. 2023-yilda jami

pensiya oluvchilarning 58,7 foizni ayollar, 41,3 foizni esa erkaklar tashkil etdi.



2-rasm. 2000-2023-yillarda pensionerlarga tayinlangan oʻrtacha oylik pensiya va yoshga doir eng kam pensiya miqdorlarining oʻsish dinamikasi (ming soʻm)[6]

2015-2023-yillarda yoshga doir eng kam pensiya miqdori 3,1 marta, oʻrtacha pensiya miqdori esa 2,8 marta oshganligini kuzatishimiz mumkin.

1-jadval

Pensiya va nafaqa oluvchi shaxslar soni, ming kishi[7]

|                                                | 2019    | 2020    | 2021    | 2022    | 2023    |
|------------------------------------------------|---------|---------|---------|---------|---------|
| Jami pensiya va nafaqa oluvchilar soni         | 3 878,4 | 4 029,3 | 4 251,1 | 4 578,1 | 4 827,3 |
| Jumladan:                                      |         |         |         |         |         |
| Yoshga doir pensiyalar                         | 2 749,8 | 2 849,0 | 2 986,7 | 3 124,0 | 3 260,1 |
| Nogironlik boʻyicha pensiyalar                 | 391,9   | 395,9   | 408,9   | 429,6   | 445,9   |
| Boquvchisini yoʻqotganlik boʻyicha pensiyalar  | 261,1   | 269,9   | 288,8   | 316,7   | 336,0   |
| Uzoq yillar mehnat qilganligi uchun pensiyalar | 95,2    | 97,8    | 101,0   | 106,6   | 110,5   |
| Nafaqalar                                      | 380,4   | 416,6   | 467,8   | 601,3   | 674,7   |

Tadqiq etilayotgan davr maʼlumotlarini tahlil etish orqali shuni aytish mumkin, 2023-yilda Pensiya jamgʻarmasi xarajatlarining 67,5 foizi (2019-yilda 70,9 foiz) yoshga doir pensiyalarni moliyalashtirish uchun, 9,2 foizga (2019-yilda 10,1 foiz) yaqini nogironlik nafaqasini, 7 foiz (2019-yilda 6,7 foiz) boquvchisini yoʻqotganlik pensiyasini, uzoq yillar mehnat qilganligi uchun pensiyalari uchun 2,3 foiz (2019-yilda 2,5 foiz) va 14 foiz (2019-yilda 9,8 foiz) nafaqa toʻlovlarini moliyalashtirilganligini koʻrish mumkin.

Pensiya va nafaqa oluvchilar soni koʻpligini, ularning moliyalashtirishdagi muammolarni hisobga olgan holda, mamlakatda xususiy pensiya fondlarini tashkil etish, ixtiyor pensiya uchun davlat tomonidan qiziqitiruvchi siyosatlarini amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi.

Hayot sugʻurtasi – bu odamning hayoti davomida yuz berishi mumkin boʻlgan kutilmagan vaziyatlar jumladan, kasallanish, oʻlim, nogironlik uchun moliyaviy kafolat beruvchi xizmatdir. Sugʻurtalangan shaxs maʼlum bir yoshga toʻlganda, baxtsiz hodisada vafot etgan taqdirda, sugʻurta shartnomasida nazarda tutilgan boshqa holatlar yuz bergan taqdirda sugʻurta kompaniyasi sugʻurta toʻvonini toʻlab beradi. Sugʻurtalangan shaxsning oʻlim holatlarida toʻlov sugʻurtalangan shaxsning merosxoʻrlari yoki sugʻurta shartnomasida koʻrsatilgan benefitsiar tomonidan qabul qilinadi. Shuningdek, agar sugʻurtalangan shaxsning garovga qoʻyilgan mol-mulki boʻlsa, bank ham sugʻurta toʻlovinini olish imkoniyatiga ega.

Insonlarning hayot sugʻurtasidan foydalanishining ahamiyati quyidagilarda namoyon boʻladi:

1. Oilaviy barqarorlikni taʼminlash. Sugʻurta polisi inson vafotidan keyin uning oilasiga moliyaviy yordam koʻrsatadi.
2. Qarzlardan himoyalash. Agar sugʻurta qilingan shaxsning qarzlari boʻlsa, hayot sugʻurtasi yordamida bu qarzlarni toʻlanadi.
3. Kutilmagan holatlarga tayyorgarlik. Baxtsiz hodisa yoki sogʻliq bilan bogʻliq muammolar yuzaga kelganda, sugʻurta kompaniyasi xarajatlarni qoplashga yordam beradi.
4. Jamgʻarma sifatida foydalanish. Baʼzi hayot sugʻurtasi turlari jamgʻarma qilish imkoniyatini ham beradi, yaʼni sugʻurta muddati tugagandan soʻng pul mablagʻlarini qaytarish mumkin.


Oʻzbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 243-moddasi 28-bandi va 245-moddasilarida sugʻurta qilish, birgalikda sugʻurta qilish va qayta sugʻurta qilish xizmatlari boʻyicha sugʻurta bozorining professional ishtirokchilari tomonidan amalga oshiriladigan sugʻurta qilish boʻyicha xizmatlar soliq solishdan ozod qilinishi haqida belgilab oʻtilgan[8].

Keyingi yillarda mamlakatda sug'urta bozori jumladan, hayot sug'urtasi tizimida sezilarli o'zgarishlar kuzatilmogda.

2-jadval  
2022-2023-yillardagi jami sug'urta mukofotlari ko'rsatkichlari (mln.so'm)[9]

| Ko'rsatkichlar                                                       | Jami sug'urta mukofotlari |            |
|----------------------------------------------------------------------|---------------------------|------------|
|                                                                      | 31.12.2022                | 31.12.2023 |
| Hayotni sug'urtalash sohasidagi sug'urta tashkilotlari, shu jumladan | 1524679                   | 322491     |
| Majburiy sug'urta                                                    | 26766                     | 35645      |
| Ixtiyoriy sug'urta                                                   | 1497912                   | 286846     |

2022-yilda O'zbekiston sug'urta bozorida to'plangan jami sug'urta mukofotlarining 24 foizi hayot sug'urtasi sohasidagi sug'urta tashkilotlari hissasiga to'g'ri kelgan bo'lsa, 2023-yilda ushbu ko'rsatkich 4 foizni tashkil etdi. Hayot sug'urtasi bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar sug'urta mukofoti 2023-yilda 78,8 foizga kamayganligini ko'rish mumkin. Ammo, hayot sug'urtasi tarkibidagi majburiy sug'urta turlari hissasiga to'g'ri



3-rasm. Sug'urta to'lovlari ko'rsatkichlari (mln.so'm)[9]

kelgan sug'urta mukofotlari hajmimi 33,2 foizga oshgan, ixtiyoriy sug'urta xizmatlarining hissasi 80,9 foizga qisqargan (2-jadval).

3-rasm ma'lumotlari asosida aytish mumkinki, 2022-yilda Respublikada sug'urta to'lovlari bo'yicha ko'rsatkichlarning 58 foizi, 2023-yilda 22 foizi hayot sug'urtasi bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri kelgan. 2023-yilda sug'urta to'lovlari 2022-yilga nisbatan 69,7 foizga kamayganligini ko'rish mumkin. Shuningdek, 2023-yilda majburiy hayot sug'urtasi to'lovlari 35,6 foizga oshganligini, ixtiyoriy hayot sug'urtasi to'lovlari 70,4 foizga kamayganligini ko'rish mumkin.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ( Литература/ References):

- Sh.M.Mirziyoyev. Sug'urta bozorini rivojlantirish masalalari muhokama qilindi. 10.07.2019. <https://president.uz/oz/lists/view/2703>
- Mirzamahmudova M.O. Davlat pensiya ta'minoti va pensiyani hisoblash. O'quv qo'llanma. – T:Bookmany print, 2024. Bet-7
- Вахабов А.В., Охундедаева М.О. Жаҳон пенсия тизимини ривожланиши моделлари ва ҳозирги даврдаги хусусиятлари //“Молия” илмий журнали 2-2014 сон, 2014. – Б.87-91.
- Statistika agentligining ma'lumotlari asosida tayyorlandi. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/demography-2>
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 30-sonli qarori <https://lex.uz/uz/docs/-1594751>.
- Statistika agentligi sayti: <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/social-protection-2>
- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. O'zbekistonda ijtimoiy rivojlanish va turmush darajasi. Statistik to'plam. – Toshkent, 2024. – B.84.
- O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi (yangi tahriri). 01.01.2020. <https://lex.uz/docs/-4674902#-4682161>
- Istiqbolli loyihalar milliy agentligi sayti ma'lumotlari: <https://napp.uz/ru/pages/rating-of-insurers>.

Mamlakatdagi hayot sug'urta kompaniyalarining majburiyatlari o'rganilganida 2023-yildagi ushbu ko'rsatkich 2022-yilga nisbatan 1148,8 foizga oshganligini ko'rish mumkin. Uning tarkibidagi majburiy sug'urta majburiyatlari 2023-yilda 20,1 foizga, ixtiyoriy sug'urta majburiyatlari esa 1238,5 foizga oshganligi aniqlandi (3-jadval).

Hayot sug'urtasi O'zbekistonda so'nggi yillarda bosqichma-bosqich


3-jadval  
Sug'urta majburiyatlari ko'rsatkichlari (mln.so'm)[9]

| Ko'rsatkichlar                                                       | Sug'urta majburiyatlari |            |
|----------------------------------------------------------------------|-------------------------|------------|
|                                                                      | 31.12.2022              | 31.12.2023 |
| Hayotni sug'urtalash sohasidagi sug'urta tashkilotlari, shu jumladan | 1288147                 | 16086473   |
| Majburiy sug'urta                                                    | 94793                   | 113892     |
| Ixtiyoriy sug'urta                                                   | 1193355                 | 15972581   |

rivojlanib bormogda. Bu sohaga bo'lgan talab ortib borayotgani, aholining moliyaviy savodxonligining oshishi va davlat tomonidan ko'rsatilayotgan qo'llab-quvvatlashlar ushbu yo'nalishning kengayishiga turtki bermogda.

#### Xulosa (Заключение/Conclusion).

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida shuni aytish mumkinki, sug'urtaning ikki turining birgalikda ta'minlanishi kelajakda insonning turli moliyaviy xavflarga tayyor turishini ko'rsatadi.



4-rasm. Pensiya va hayot sug'urtasining birgalikda bo'lishining afzalliklari[10]

Xulosa qilib aytganda, pensiya va hayot sug'urtasi har bir inson uchun uzoq muddatli moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash vositalaridir. Ular orqali kutilmagan moliyaviy qiyinchiliklarning oldi olinadi va hayot sifati yaxshilanadi. Shu sababli, har bir inson o'z kelajagini rejalashtirishda ushbu vositalardan foydalanishni ko'rib chiqishi lozim.